

Maxsimova Madinabonu Maxtum qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası Sotsiologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada birinchi navbatda konflikt so'zi haqida qisqacha ma'lumot va industrial konfliktlar ya'ni sanoatda uchraydigan ziddiyatlar, ularning qanday kelib chiqishi va kelib chiqqan ziddiyatlarni oldini olish usullari to'g'risida keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Industrial, ziddiyatlar, munosabat, kelishmovchiliklar, konfliktlar, mojaro, nizolar, qarama-qarshilik, sanoat, to'qnashuvlar, ish tashlash.*

KIRISH

Hayot konfliktlarga to'la. Butun hayotimiz davomida turli xil ziddiyatlarga, konfliktlarga duch kelamiz. Konfliktlar turli ko'rinishlarda va turli sohalarda bo'lishi mumkin. Misol uchun do'stlar orasida, korxonalarda, ishchi xodimlarda, sanoatda va shu kabilar. Konfliktlarga to'xtalishdan oldin konflikt so'zining o'ziga ta'rif berib o'tish lozim. Konflikt so'zi (lot. conflictus — ixtilof, to'qnashish) — qarama-qarshi tomonlar, fikrlar, kuchlar to'qnashuvi kabi ma'nolarni anglatadi.¹

Konfliktlar borasidagi yangi nazariy tahliliy motivlar polyak olimi Lyudvig Gumplovich(1838-1909) ijodida ham uchraydi. Jahon tarixi irqalar o'rtasidagi doimiy kurashdan iborat ekanligini e'tirof etgan olim irqalarning yuzaga kelishi hamda ularning bir-biridan farqli jihatlari biologik emas, balki madaniy o'ziga xoslikda yotadi deb hisoblaydi. Uning fikriga ko'ra, konfliktlar yagona va zaruriy ijtimoiy jarayon emas. Biroq, keng ijtimoiy jamoalar hamda davlatlarni vujudga keltiradigan ijtimoiy birlashuvlar ahamiyatga molik jarayondir.²

Metod va materiallar. Insonlarning jamiyatdagi yashash tarzini turli ziddiyatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Turli nizo va ziddiyatlar bilan umr davomida har qanday yoshda, har qanday vaziyatda, har qanday holatda to'qnash kelish mumkin. Konfliktlar uyda, maktabda, ko'chada, o'quvchilar, ishchi xodim va uning rahbariyati va shu kabi jamoalar o'rtasida sodir bo'lishi mumkin.

Konfliktlar ba'zan qo'qqisdan, hech kutilmagan holda vujudga kelishi hamda inson hayot tarzini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Konflikt har bir inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, hech bir inson konfliktlardan o'zini "kafolatlanganman" deb ishonch bilan ayta olmaydi.

Konfliktning mohiyati zamon, makon bilan jips bog'liq. Shunday konfliktlarlar bo'ladiki, davr o'tishi bilan ular barham topadi. Dunyoda yaratilgan asarlar konflikti zaminida taqdir taqozosi turgan bo'lsa, o'rta asrlardagi asarlarda ilohiy kuch bilan insondagi shaytoniy xirs konfliktning asosini tashkil etadi.

¹ <https://uz.wikipedia.org>

² Umumiy sotsiologiya "Sotsial konfliktlar" 5-bet

Shunday boqiy mavzular borki (masalan, saxiylik va xasislik, vafodorlik va bevafoqlik, tiriklik va o'lim), bularda konflikt har bir davrning ma'naviy, ruhiy talab va ehtiyojlaridan kelib talqin qilinadi.

Konflikt- to'qnashuv jarayonida ikki tomonning bir-birini tushunmagan holatda vujudga kelishi.

- Konfliktni vujudga kelishida birinchi shakl-mojarodir.Mojaro konfliktning asosi hisoblanib, uni negizida ikki tomon uchun to'qnashuvni keltirib chiqaruvchi omillar mavjud bo'ladi.

- Ikkinchi shakli esa norozilik bo'lib, bir-biridan norozilik natijasida kelib chiquvchi noxush kayfiyatni so'z yoki hatti-harakat bilan bilish natijasida konflikt yuzaga keladi.

- Uchinchi shakl-kelishmovchilik bo'lib, fikr va qarashlarni to'g'ri kelmasligi natijasida shaxsiy fikrga qarshi da'voning mavjudligidir.

Sotsiologiyada ishlab chiqarish yoki mehnat ziddiyatlari deganda, bir tomondan, korxonaga egalari va menejerlari va (yoki) ularning vakillari, ikkinchi tomondan, xodimlar va (yoki) ularning vakillari o'rtasidagi qarama-qarshilikni ifodalovchi xatti-harakatlar va munosabatlar turlari tushuniladi. ³

Sanoat konfliktlari ish beruvchi va ishchilar o'rtasidagi kelishmovchiliklar natijasida paydo bo'ladi. Bu konfliktlar ishchilarning huquqlari, ish sharoitlari yoki ish haqi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday holatlar ishchilar o'z manfaatlarini himoya qilish uchun birlashganda,ish joyidagi xavfsizlik choralarining yetarli emasligida va shu kabi holatlarda kelib chiqishi mumkin.

Mulohaza va natijalar. Sanoat konfliktlari mavzusi XX asr o'rtalarida, kasaba uyushmalari o'zining eng faol rivojlanish bosqichiga kirgan va ish tashlash harakati keng qamrovga ega bo'lgan. G'arb sotsiologiyasida mashhur bo'ldi. Bir qator ishlar ish tashlashlarning sabablarini va ularning oqibatlarini aniqlash va tizimlashtirishga bag'ishlangan. Ish tashlashlarning roli va ahamiyatini baholashda mehnat munosabatlari bo'yicha tadqiqotchilar o'rtasida aniq tushuncha yo'q. Ba'zi mualliflar ishlab chiqarish mojarosini ishchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlardagi o'zgarishlarni rag'batlantiradigan va ishlab chiqarish munosabatlarining yangi shakllarining shakllanishiga olib keladigan jarayon, shuning uchun ijobiy, boshqalari esa ijtimoiy munosabatlar tizimining qulashiga tahdid soladigan buzg'unchi jarayon sifatida qarashgan [Hiller. 1969; Leyn, Roberts 1971; Gouldner 1965]. ⁴

G'arb mamlakatlarida "sanoat konflikti" atamasi "ish tashlash" tushunchasining sinonimi sifatida ishlatiladi va tadqiqotda xuddi shu ma'noda qo'llaniladi.

Rossiyada "mehnat to'qnashuvi" atamasi ko'pincha tadbirkorlarga yoki hukumatga bosim o'tkazish uchun bir xil sharoitlarda ishni davom ettirishdan jamoaviy rad etishdan iborat bunday nizo shakllaridan biri sifatida ish tashlash paydo bo'ladi.⁵

³ И.М. Козина "Индустриальные конфликты в современной России" Экономическая социология. Т. 10. № 3. Май 2009. 16-6

⁴ И.М. Козина "Индустриальные конфликты в современной России" Экономическая социология. Т. 10. № 3. Май 2009. 17-6

⁵ O'sha manbaa 16-6

Hozirgi kundagi konfliktlarga misol qilib texnologiya kompaniyalari yoki avtomobil sanoatidagi ishchi talablarni keltirish mumkin.

Sanoat konfliktlari turli sabablarga ko'ra kelib chiqishi mumkin. Quyida ularning asosiy sabablarini kletirib o'tamiz:

Ish haqi: Ishchilar ko'pincha ish haqi yoki bonuslar talab qiladi.

Ish sharoitlari: Qiyin yoki noqulay sharoitlar.

Ish vaqti: Qo'shimcha ish vaqti yoki noaniq ish grafiklari

Xavfsizlik masalalari: Ish joyidagi xavfsizlik choralarning yetarli emasligi

Ishchilar huquqlari: Ishchilar huquqlari va manfaatlari himoya qilinmayotgani va boshqa yana ko'plab hollarda vujudga kelishi mumkin.

Bundan tashqari ishlab chiqarish konfliktlarining sabablari va manbalarini tushunishga sotsiologik yondashuv turli tushunchalarda taqdim etilgan.

K.Marks ishlab chiqarish konfliktlarining mohiyatini xususiy mulkning hukmronligi bilan izohlagan, bu esa ish beruvchi va xodimlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarga antagonistik xususiyat bergan.

M.Veber mehnat konfliktlarining mohiyatini ishlab chiqarish agentlarining iqtisodiy manfaatlari (foyda, ish haqi) o'rtasidagi kurashda ko'rdi.

P.Sorokinning ijtimoiy tengsizlik nazariyasida iqtisodiy konflikt odamlarning qondirilmagan asosiy ehtiyojlari va konflikt ishtirokchilari tomonidan ularni qondirish vositalarini izlash bilan belgilanadi.⁶

Bunday konfliktlarning oldini olishda quyidagilarni olishimiz mumkin:

- Isha vaqtini yaxshilash;
- Ish haqini oshirish;
- Mehnat sharoitini yaxshilash;
- Kelishuv va muzokaralar (va boshqalar).

Bundan tashqari kelishuvga erishish natijasida tomonlarning manfaatlarini hisobga olgan holda qoniqarli kelishuvga erishish, ikkala tomon uchun ham foydali shartnoma tuzish va kelishuvga erishib bo'lmaydigan hollarda, muxolifat tomonlar o'rtasida vositachilik xizmatlaridan foydalanish, kelishuvga erishishga yordam berish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak yuqorida sanab o'tganlarimiz natijasida ko'plab muammoli konfliktlarni bartaraf etishimiz mumkin.

Asosan sanoat sohasida konfliktlarni oldini olish va ularni hal qilish uchun tomonlar o'rtasidagi muloqot va kelishuvlarni rivojlantirish, ishchilarning huquqlarini himoya qilish va qonunlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Tomonlar o'zaro manfaatli yechimlarga erishish uchun muzokara qilishni afzal ko'rishlari kerak.

Bular natijasida ko'plab ziddiyatlarni oldini olishimiz va ish faoliyatini yanada rivojlantirishimiz mumkin.

⁶. И.М. Козина "Индустриальные конфликты в современной России" Экономическая социология. Т. 10. № 3. Май 2009. 16-6

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.wikipedia.org>
2. И.М. Козина "Индустриальные конфликты в современной России"
Экономическая социология. Т. 10. № 3. Май 2009.
3. Umumiy sotsiologiya "Sotsial konfliktlar"
4. Internet ma'lumotlari